



# YOSHLAR OVOZI

*Biz ~ kelajak bunyodkorimiz!*

## ИККИНЧИ “SPARK” НУРСУЛҲУГА НАСИБ ЭТДИ



Пойтахтимизда бўлиб ўтаётган “Ёш китобхон” танловининг 15 – 19 ёш тоифаси бўйича ғолиби аниқланди. 1-уринни қорақалпоғистонлик Нурсулму Коканова қўлга киритди. 2-уринга Андижон вилояти вакили Дилнавоз Нейматуллаева, 3-уринга бухоролик Бахриддин

Рафиков сазовор бўлди. Нурсулму Кегейли туманида истикомат қилади. Ота-онаси ўқитувчи. Тенгдошимиз болалигидан мутолаага меҳр қўйган. Биринчи ўқиган китоби “Уйқудаги кўз” халқ эртаги эди. — Ўтган йили танловнинг туман босқичида учинчи уринни эгал-

лагандим, — дейди Нурсулму. — Бир йил толмай тайёргарлик кўриб, мана, охири “Spark” автомобили соҳибига айландим. Шодлигим чексиз. Уни сўз билан ифодалаб беролмайман.

Х.ТОШТЕМИРОВ

## ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ ХОТИРАСИГА ЭҲТИРОМ КЎРСАТИЛДИ



Пойтахтимизнинг Юнусобод туманидаги Чингиз Айтматов кўчасида буюк адиб ва жамоат арбоби хотирасига атаб ўрнатилган ёлгорлик — барельеф очилиш маросими бўлиб ўтди.

Тадбирда Қирғизистондан келган делегация вакиллари, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутатлари, турли вазирлик ва идоралар, жамоат ташкилотлари, миллий маданият марказлари, дипломатик корпус вакиллари, ёзувчи ва шоирлар, ёшлар иштирок этди.

Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси раиси Сирожиддин Саййид, Қирғизистон маданият, ахборот ва туризм вазирлиги ўринбосари Бактбек Секимов ва бошқалар буюк маърифатпарвар адиб нафақат киргиз эли, айни пайтда бутун туркий мамлакатлар, жумладан, ўзбек халқи учун ҳам азиз ва қадри сиймо эканини таъкидлади. Президентимизнинг 2018 йил

2 апрелдаги “Буюк адиб ва жамоат арбоби Чингиз Айтматов таваллудининг 90 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги қарори ижросини таъминлаш юзасидан мамлакатимизда қатор ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, “Чингиз Айтматов ва Ўзбекистон” номли хотира китоби, адиб асарлари тўплами чоп этилди. Асарлари асосида янги спектакллар сахналаштирилди.

Бугун эса Тошкент шаҳрининг марказий кўчаларидан бирига адиб номи берилиб, унинг ёлгорлиги ўрнатилди. Қисқа фурсатда улуг адиб номи билан аталувчи мазкур кўчада ободонлаштириш ва янги барельефни ўрнатилиш ишлари амалга оширилди. Унинг атрофидаги пиёдалар йўлакларини кенгайтирилиб, ободонлаштирилди.

— Бутун Тошкент шаҳрида қатта байрам. Ўзбек ва қирғиз халқи ўртасида дўстлик алоқаларини мус-

таҳкамлашга хизмат қилган Чингиз Айтматовга ўрнатилган ёлгорлик очилмоқда, — дейди Қирғиз миллий ёзувчилар уюшмаси раиси ўринбосари Нурманбек Тинчликбек. — Адиб минтақамиз тинчлиги, унинг келажиги ва раванқ, халқларимиз ўртасида дўстлик ва ҳамжихатликни янада мустаҳкамлашда фидокорона меҳнат қилди. Ўзбекистондек жаннатноманд дёрда буюк адибимизнинг хотирасини абадийлаштириш мақсадида яратилаётган ҳужжатли фильмлар, ёзувчи асарлари асосида янги спектакль сахналаштириляётгани, Тошкент шаҳрининг марказий кўчаларидан бирига адиб номи берилгани бизни жуذا қувонтиради. Унинг серкирра ижоди икки қардош халқ ўртасидаги дўстлик ришталарини янада мустаҳкамлашга хизмат қилади.

(Давоми 2-саҳифада)

## ТАHLIL VA TALQIN

# ХАЛҚ ТАЪЛИМИ:

вазиятни бир йилда ўнглаб бўлмайди

2019 йилда Ўзбекистонда халқ таълимини ривожлантириш ҳамда соҳада тўпланиб қолган жиддий муаммоларни хал этишга давлат бюджетидан 17,1 ТРИЛЛИОН СЎМ маблағ йўналтирилади

Бу ҳақда Халқ таълими вазири Шерзод Шерматов ўзи бошқараётган тизимнинг йиллик фаолияти сарҳисобига бағишланган матбуот анжумани чоғида маълум қилди. Яширмаймиз, журналистлар билан учрашув анча давомли, ҳатто каердадир мунозарали кечди. Сабаблари бор, албатта.

Жорий йилнинг июнь ойини эсланг. Ҳанда Президентимиз халқ таълимини ислоҳ этишга доир байни тарихий йиғилиш ўтказганди. Мактаблардаги аҳвол, таълим сифати, устоз ва мураббийларнинг жамиятдаги мавқеи билан боғлиқ бир қатор оғриқли масалалар рўй-рост тилга кўчгани ҳам ёдимизда. Нати-

жада бир қанча муҳим давлат ҳужжатлари қабул қилинди. Вазирлик таркиби тўлиқ ислоҳ этилиб, янги раҳбар тайинланди. Унинг атрофида эса, инновацион жамоа шаклланди. Ҳўш, олдий халқ — ўқувчию ўқитувчилар учун нима ўзгарди?



— Педагогларимиз елкасидаги “юк” анча енгиллашди, — таъкидлади Ш.Шерматов. — Уларни пахта йиғим-теримида ўхшаш таълимга мутлақо алоқадор бўлмаган ишларга, турли-туман йиғилишларга жалб этиш тўхтатилди. Энди ўқитувчи қимматли вақтини бўлар-бўлмас қоғозлар тўлдириб ёки узундан-узук ҳисоботлар тайёрлашга сарфламайди. У юритиши керак бўлган ҳужжатлар сонини 7 тадан 3 тага қисқартирилиб, синф журнали, конспект ва йиллик тақвим режа қолган, холос. Атайлаб ҳисоблаб чикдик: ўтган йили умумтаълим мактабларига 200 минг маротаба текшириш келган. Тасаввур қиялсизми, 200 минг маротаба! Комиссия келса, шубҳасиз, бутун жамоанинг ҳаловати бузилади. Бошқа ноқулайликларни айтмай қўя қолай. Ҳарқалай, ўзингиз ҳам англаб турибсиз.

(Давоми 2-саҳифада)

## MUNOSABAT

# Қонун билганга мақсад бир қадам

Буюк юно донишманди Афлотун: “Халқ қонунарга эҳтиёж сезган ҳолда уни чуқур ўрганиши зарур. Чунки улар кейинчалик халқнинг ўзига фойда келтиради. Акс ҳолда, қонунда кўзланган мақсадга эришиб бўлмайди”, — деган эди.

Худди шу маънода Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимда маъруза қилган давлатимиз раҳбари Конституциянинг мазмун-моҳияти ва унинг бугунги қунда ҳаётимизда тутаётган ўрни хусусида тўхталар экан, мамлакатда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий ислохотлар, айниқса, инновацион ва индустриал ривожланишларни янги босқичга кўтараяётган Ҳаракатлар стратегияси баайни Бош қонунимиз негизда яратилганини алоҳида таъкидлади.

Табиийки, халқнинг ташвиш-муаммоларини вақтида хал этимай

туриб уни рози қилиб бўлмайди. Бунинг учун эса, одамлар билан доимий мулоқотда бўлмоқ зарур.

— Бош қонунимизни чуқур ўрганиш, англаш, ҳаётга жорий этиш ва унга сўзсиз амал қилиш — барчамизнинг шарафли бурчимиздир, — дейди Президент. Назаримизда, Конституциянинг ҳаётимизда тутаётган ўрни масаласида бунданда муфассал ва мукамал таърифни келтириш кийин.

## АДОЛАТ ҚЎРГОНИ

Қайсики жамиятда инсон кадр-қиммати улуғланар экан, ўша муҳитда чинакам фаровонлик ҳукм суради. Қайсики жамиятда судлар халқ ишончини қозона олмас экан, ўша жамиятда парокандалик юз бераверади.

Демак, ҳар турдаги бахт-саодат қалити бу — адолат. Адолат қўргони эса, давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, “...суд органлари, судьялар қонунга, одиллик тамойилларига

қатъий амал қилиб, ўз вазифасини ҳалол ва виждонан адо этса...”-гина пайдо бўлади.

Қарийб икки йилдирки, юртимизда Конституция тамойилларига мувофиқ шахс ҳуқуқи ва манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашга қаратилган одил судлов тизимини изчил шакллантириш устувор аҳамият касб этмоқда. Бу бўйича кўпгина салмоқли ишлар бажарилган. Жорий йилнинг ўзида 1 минг 881 та жиноят иши далиллар етарли эмаслиги боис тугатилди. Судлар томонидан 590 нафар шахс оқланди. Улар олдиси бағрига қайтди, жамиятга қўшилди.

Президентимиз “...судьянинг онгида — адолат, тилида — ҳақиқат, дилида — поклик ҳукмрон бўлиши керак”, деган тамойилни илгарин сургани бежиз эмас. У ўз маърузасида “электрон жиноят иши” ҳамда “масофадан туриб сўроқ қилиш” тизимларини жорий этиш, шунингдек, Судьялар олий кенгаши қоғида Судьялар олий мактабинини ташкил этишни ҳам тақлиф қилди. Бу шундан далолатки, яқин истикболда юртимизда суд-ҳуқук соҳасида, ҳуқуқий давлат асосларини янада такомиллаштириш ҳамда аҳолининг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтиришда мисли кўрилмаган ислохотлар амалга оширилади.

(Давоми 3-саҳифада)

# ХАЛҚ ТАЪЛИМИ:

## вазиятни бир йилда ўнглаб бўлмайди

(Бошланиши 1-саҳифада)

Мана энди — жорий йилда текширишлар сони 26 бараварга камайди. Менимча, бу анча салмоқли натижа. Яна бир муҳим жиҳат: ўқитув-

йўналтириши мумкин. Ишонинг, бунақаси ҳали бўлмаган! Халқ таълими ходимлари учун имтиёзлик ипотека, истеъмо ва автокредитлар ажратиш механизмлари ишлаб чиқариётганини ҳам эслатиб ўтмоқ-

Албатта, ҳар қайси соҳанинг сифат-самарадорлигини кадрлар белгилаб беради. Халқ таълими тизимида малакали, ўз касбига содиқ, ҳалол ва фидойи раҳбар, шунингдек, педагог кадрларга талаб ҳамон юқориликча қолмоқда. Бу ҳақда гапирар экан, Шерзод Шерматов ич-ичидан куюнди:

— Тизимда коррупция борлиги, эскича фикрлайдиган ёки ўзидан

### ЖОРИЙ ЙИЛДА 13 МИНГ НАФАР ЭРКАК ЎҚИТУВЧИ МАКТАБЛАРГА ҚАЙТДИ



чиларнинг ойлик маоши тоифасига қараб 72 фоизгача кўтарилди. Айтиш керак, бундан кўпроқ олий тоифали устозлар манфаат кўрмоқда. Давлатимиз мактаб психологларига ҳам эътиборни кучайтирган. Уларга тайинланадиган иш ҳақи ҳамда штат birlikлари ошди. Қолаверса, ҳозир мактаб директори бюджетдан ташқари, айтиш керак, таълим муассасасининг кўчмас мулкни ижарага беришдан топилган маблағнинг 10 фоизини маҳоратли ва фаол ўқитувчиларни рағбатлантиришга


чимаан. Қолаверса, юртимизда илк бор “Халқ таълими фидойиси” Давлат мукофоти таъсис этилди.

Мутасаддилар мактабларга эркак ўқитувчиларнинг қайтаётганини ҳам ютуқ сифатида талкин этди. Жорий йилги ўсиш кўрсаткичи 13 минг нафарни ташкил қилган. Шундай қилиб, айни вақтда ўғил-қизларимиз 11 минг 500 нафар эркак устоз қўлида сабоқ олмақда. Ваҳоланки, атиги икки йил аввал уларнинг сони республика бўйича 2 минг нафарга ҳам етмасди.



қиладиган мураккаб жараён. Аммо биз қўл қовуштириб ўтирганга йўқ — ҳаракат бошланган. Масалан, ўқувчилар билимини халқаро мезонлар асосида баҳолайдиган PISA тизими-га ўтишга тайёргарлик қўрилмоқда.

**ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА МАЛАКАЛИ, ЎЗ КАСБИГА СОДИҚ, ҲАЛОЛ ВА ФИДОЙИ РАҲБАР, ШУНИНГДЕК, ПЕДАГОГ КАДРЛАРГА ТАЛАБ ҲАМОН ЮҚОРИЛИКЧА ҚОЛМОҚДА**



### 2021 ЙИЛДА ЎЗБЕКISTON ТАЪЛИМ СИФАТИНИ БАҲОЛАЙДИГАН ХАЛҚАРО PISA РЕЙТИНГ ТИЗИМИГА ЎТИШГА ТАЙЁРГАРЛИК КЎРМОҚДА

Муддат — 2021 йилгача. Ҳозир таълим сифати ҳақида ҳамма ҳар хил фикр юртияпти: амалдордан сўрасанг, бир гапни, ота-онанинг фикри билан кизиксанг, мутлақо бошқа нарсани айтилади. Шу боис бизга халқаро рейтинг тизими керак. Ўшандагина саъй-ҳаракатларимизга ҳолисона баҳо бериш имконига эга бўламиз.



“Замонавий мактаб” концепциясини яратиш, шунингдек, таълим сифати юқори бўлган намуналик мактаблар тармоғини кенгайтиришдек кенг қўламли тадбирлар ўрин олган.

Халқ таълими вазири раиси раҳиблари амалга ошириш жараёнида илгор давлатлар таълим сифати таянаётгани матбуот анжумани давомида алоҳида таъкидланди. Жумладан, Корея Республикаси, Финляндия, Хитой, Буюк Британия, Германия, АКШдаги эксперт донорлар ҳамда таълим соҳасига сармоя киритувчи молия ташкилотлари билан узвий ҳамкорлик йўлга қўйилган.

Наргиз УМАРОВА

### ҲОЗИР МАКТАБ ДИРЕКТОРИ БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒНИНГ 10 ФОИЗИНИ МАҲОРАТЛИ ВА ФАОЛ ЎҚИТУВЧИЛАРНИ РАҲБАТЛАНТИРИШГА ЙЎНАЛТИРА ОЛАДИ. БУНАҚАСИ ҲАЛИ БЎЛМАГАН!



кучлироқ мутахассисларни имкон қадар сиқиб чиқаришга интиладиган ҳудудий бошқарма бошлиқларимиз ҳали ҳам учрашгани инкор этмайман. Худди шу каби мактабларимизда муаммолар йўқ дейиш ёлғон бўлади. Ўнглаб таълим масканлари таъмирга муҳтож, қанчасида оддий ичимлик суви, ошхона ёки спорт заллари мавжуд эмас. Лекин вазиятни бир йилда ўнлашнинг иложи йўқ, тушунарсизми?! Ҳозирнинг ўзида бошқарма бошлиғи, директор ёки ўқитувчи

ўн баравар кўп маош тақлиф қилсангиз ҳам, у бирдангина малакали мутахассис бўлиб қолмайди. Яхши кадрни тарбиялаш керак! Бу эса, ҳақ талаб

### ПРЕЗИДЕНТ МАКТАБЛАРИДА ТАЪЛИМ ИНГЛИЗ ТИЛИДА ОЛИБ БЎРИЛАДИ



### ESHITDINGIZMI?

Шерзод МАХМУДОВ

## ТАЛАБАЛАРГА 800 МИЛЛИОН СЎМ АЖРАТИЛДИ

### Пойтахтимиздаги Ёшлар марказида Иттифок таълими гранти соҳиблари тақдирланди

Танлов Ёшлар иттифоқи томонидан уч йўналишда эълон қилинган эди. Якуний ҳулоса бўйича икти-

мой ҳимояга муҳтож 227 нафар талаба ғолиб деб топилди. Уларга контракт тўлови учун жами 800

миллион сўм ажратилади.

Тақдирлаш маросимида чин етим, ногирон, ота-онаси ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилинган ва Меҳрибонлик уйларида тарбияланган 55 нафар йигит-қизга грант маблағларини олиш ҳуқуқини берувчи махсус сертификатлар ҳамда эсдалик совғалар ошқирилди.

— Уйдагилар контракт пулини тўлашга жуда қийналиб қолганди, — дейди Тошкент давлат иктисодиёт университети талабаси Шоҳрух Ҳалилов. — Ёшлар иттифокнинг “Таълим гранти” лойиҳаси ҳақида эшитиб, ҳужжат тўплаб бошладим. Ишчи гуруҳи оилавий шартимни ўрганди. Энди менга шартнома пулининг 50 фоизи тўлаб бериладиган бўлди. Иттифокдан жуда миннатдорман!

## ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ ХОТИРАСИГА ЭҲТИРОМ КЎРСАТИЛДИ

(Бошланиши 1-саҳифада)

Адибнинг қарийб барча асарлари ўзбек тилида нашр этилган. Унинг “Жамила”, “Сарвқомат дилбарим”, “Бўтакўз”, “Биринчи муаллим”, “Момо ер”, “Сомон йўли”, “Алвидо, Гулсари” каби кўплаб асарлари китобхонларнинг юксак эътирофига сазовор бўлган.

— Чингиз Айтматов хотирасини абадийлаштириш мақсадида Тошкент шаҳрининг марказий кўчаларидан бирига адиб номи берилиб, унга ёдгорлик ўрнатилиши бежиз эмас, — дейди Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, шoir Эшқобил Шукур. — Мақсад атоқли адибнинг ҳаёт йўли ёшларимиз учун юксак ибрат намунаси бўлсин. Чингиз Айтматовнинг ўлмас бадийи мероси халқларимиз ҳаётида ҳамisha муҳим аҳамият касб этади. Унинг эзулик ғоялари, миллий ва умумбашарий кадриятларга қаратилган баркамол асарлари мамлакатимизда кўплаб нусхада нашр этилмоқда.

Ҳар бир асар бизни ҳамisha огоҳликка чорлаб, калбимизни, руҳимизни пок саклашга даъват этади. Агар мен туйғуларимда бироз ғариб-лашишни сезсам, албатта, Чингиз Айтматов асарларини ўқийман.

Тадбирда адиб ёдгорлиги пойига гул қўйилиб, буюк сиймо хотирасига ҳурмат бажо келтирилди. Унинг умуминсоний кадриятлар ва меҳр-оқибат туйғуларини юксак пардаларда тараннум этилган етук бадийи асарлари, ибратли ҳаёти ва ижтимоий фаолияти ҳусусида сўз юритилди.

Шу кунини Ўзбек миллий академик драма театрида Чингиз Айтматов хотирасига бағишланган маънавий-маърифий тадбир бўлиб ўтди.

Унда Ўзбекистон Республикаси Президенти маслаҳатчиси Х.Султонов, Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази директори А.Саидов ва бошқалар

атокли адибнинг бой ижоди, ибратли ҳаёт йўли ва ижтимоий фаолияти, миллий адабиётимиз ва маданиятимиз ривожига, дунё халқлари маънавийтини юксалтиришга қўшган улкан хиссаи ҳақида сўз юритди.

Қирғиз ёзувчиси, давлат, жамоат арбоби, Қирғизистон халқ ёзувчиси, Қирғизистон Фанлар академияси академиги унвонлари соҳиб асарлари таъсирчанлиги, ўзига хослиги, муҳим воқеа-ҳодисалар асосида ёзилгани билан ажралиб турди. Адиб асарларида ўткир сюжет, кучли ички руҳий зиддиятлар, воқеалар ёритилишида чуқур таҳлил, мухаббат, эзулик, гўзаллик намоён бўлади.

Икки кардош халқ вакиллари иштирокида ўтказилган мазкур тадбир Чингиз Айтматовга чекиз ҳурмат ва эҳтиром намунаси. Адиб нафақат қирғиз эли, айни пайтда бутун туркий мамлакатлар, жумладан, ўзбек халқи учун ҳам азиз ва қадри сиймо эди.

— Президентимизнинг қарори нафақат қирғиз халқининг буюк ёзувчисига, балки бутун адабиёт аҳлига кўрсатилган ҳурматнинг намунаси, — дейди филология фанлари доктори, профессор Ҳамидулла Болтабоев. — Мазкур қарор ўзбек халқи учун азиз ва қадри сиймо, буюк адиб, ижодкорга юксак ҳурмат-эҳтиром рамзи сифатида қардош қирғиз халқи билан яқин қўшничилик ва дўстлик алоқаларини янада мустаҳкамлашда, адабиёт, маданият соҳасидаги ҳамкорликни кенгайтиришда муҳим аҳамиятга эга.

Атоқли адиб нафақат қирғиз элининг, балки бутун дунёнинг буюк шахси, ўз сўзи, ўрни, қадр-қиммати юксак инсон эди. Унинг кўлаб асарлари бутун дунёда китобхонлар эътирофига сазовор бўлган.

Қарорда таъкидланганидек, ўтган асрнинг 80-йилларида собиқ Марказ томонидан уюштирилган

“Ўзбек иши”, “пахта иши” каби ноҳақ сиёсий кампаниялар чоғида Чингиз Айтматовнинг адолат ва ҳақиқат куйчиси сифатида халқимизнинг шаъни ва обрў-эътиборини қатта минбарлардан туриб мардона ҳимоя қилганини эл-юртимиз ҳамisha миннатдорлик билан эслади.

Давлатимиз томонидан “Дўстлик” ва “Буюк хизматлари учун” орденлари билан тақдирлангани ҳам шундан далолат беради.

Атоқли ёзувчи шахси, ҳаёти ва ижоди ёш адибларимиз учун юксак ибрат намунаси ҳисобланади.

— Ўтмишини унутган, хиссиз, ҳамма нарсасига лоқайд, итоғу буйруқни бажаришдан бошқа нарсани билмайдиган, туйғу, нозик хиссиётлари сўнган манкурт образи тасвири адиб ижодининг муҳим қирраларидан бири бўлган, — дейди Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси раиси Сирожиддин Саййид. — Ч.Айтматовнинг асарлари жаҳоннинг кўлаб тилларига таржима қилиниб, юз миллиондан ортиқ нусхада чоп этилган. Шу маълуотнинг ўзиде адиб асарларининг нечоғлиқ ўқишли эканини аниқлатади.

Адиб хотирасига бағишланган илмий конференциялар, мамлакатимиздаги олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар, умумий ўрта таълим муассасалари, ҳарбий қисмлар, меҳнат жамоалари ва маҳалларда танитилиш шoir ва ёзувчилар, олимлар иштирокида учрашувлар, адабий кечалар ташкил этилаётгани адиб тимсолида бутун қирғиз халқига кўрсатилаётган ҳурматнинг фидосидир.

Тадбирда “Икки элнинг суюкли фарзанди” номли ҳужжатли фильм ва адиб асарлари асосида сахна кўринишлари, куй-кўшиқлар янгради.

Абдулазиз МУСАЕВ,  
Барно МЕЛИҚУЛОВА,  
ЎЗА мухбирлари

## ЯНГИ ИПАК ЙЎЛИДАГИ САНЪАТ

Ўзбекистон тасвирий санъат галереясида очилган кўргазма шундай номланди



Ж.ЭРКИНОВ

Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси, Санъат ва дизайн

бўйича Германия — Хитой маданият алмашинуви ассоциацияси

ҳамкорлигида ташкил этилган экспозициядан немис, хитой ва ўзбекистонлик рассомларнинг ижод намуналари ўрин олган. Кўргазма “Янги Ипак йўлидаги мовий контейнер” номли халқаро лойиҳанинг дастлабки босқичи бўлиб, 20 декабрдан давом этади.

— Буюк Ипак йўлида жойлашган мамлакатлар аҳолисини маданият ва санъат воситасида бирлаштиришни мақсад қилдик, — дейди лойиҳанинг Ўзбекистондаги вакили Тўйчи Рўзибоев. — Бугунги экспозицияда Хитойнинг Дунхуан, Шаннан бадий академиялари вакиллари, шунингдек, Германиядан 11 нафар ва юртимиздан 60 нафар тасвирий санъат устасининг ишлари намоён этилмоқда.



DILDAGI GAPLAR

Dilnoza ATOYEVA, talaba

# Kam bo'lmadim

Yoshlikni behuda ishlarga sarflash emas, aksincha, navbahor davr kuch-g'ayratidan foydalanib, o'qib-o'rganish, ko'proq izlanish kerak, nazarimda. Chunki bugungi intilish va mashaqqatlar ertaga, albatta, o'z mevasini beradi. Axir, harakatga yarasha barokot bo'lishini yaxshi bilamiz.

Abituriyentlik chog'imda menga quvvatdori bo'lgan oltin maslahat bu. Ishonasizmi, dars tayyorlab o'tirganimda shu holatda ko'zim ilinar, hatto bir necha daqiqalik tush ham ko'rardim. Tushimga ona tili o'qituvchimiz Nilufar opa kirardi-yu: "Dilnoza, qarang, onangiz sizning o'rningizga barcha yumushlarni bajaryapti. Qizim shu narsalarga ham andarmon bo'lmasin, o'qishi kerak degan umidda", — derdi. Shu ondayoq ko'zim moshdek ochilib, sakrab o'rimgan turardim va yana dars tayyorlashga kirishardim. "Ishonchni oqlashim kerak", derdim o'zimga-o'zim.

Abituriyentlik davri hamma qatori men uchun ham qiyin kechgan. Chunki miriqib dam olganimni esloymayman. Abiturientlarning "dushmani" bo'lgan uyqu o'zimdanda qochirishga harchand urinmayin, o'qiyotgan kitoblarni menga "alla" aytayotgandek bo'laverardi. Shunday paytda ustozlar nasihatini yodga olardim-u, yana quvvat to'plab, o'qishga kirishardim.

Biri: "Hayot siz o'ylaganchalik mukarrab emas, uni insonning o'zi qiyinlashtirib yuboradi. Hayot biz o'ylaganchalik oson ham emas, biroq uni yengillatish o'z qo'lingizda. Kelajagingiz

bugungi g'ayratingizga bog'liq", — deya yo'l-yo'riq ko'rsatardi. Boshqasi bo'lsa: "Bolajonlarim, xato qilishdan cho'chimang. Hozir uni tuzatuvchi men borman. Zero, qo'rqoqlik yoxud erinchoqlik qilib, vazifalarni to'liq bajarmas ekansiz, bilinki, bu qusurlar sizga imtihon paytida pand beradi", — deb ogoh etardi.

Tadqiqotchilar odamlarning 80 foizi muayyan sohaga o'qituvchisi sabab qiziqishini ta'kidlaydi. Haq gap. Chunki ustozning birgina gapi, maslahati bolani hal qiluvchi qarrorga undashi, fikrini o'zgartirishi mumkin.

Shu bugungacha ustozlar o'g'itiga amal qilib, kam bo'lmadim. Litseyini a'lo baholarga tamomlab, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga davlat granti asosida o'qishga kirdim. Talaba bo'lishimga o'qituvchilarning munosib hissa qo'shgan. Buning uchun ulardan behad minnatdorman. Omon bo'ling, mehri daryo azizlarim!

azobidan to'lg'anib, "yuz-ko'zlari" za'faron tusga kiradi. Keyin dardi zo'rayib, bor-budini shamolga sovuradi. Badanini qishning izg'irin sovug'i qurshab oladi.

Behimizga qoyil qolaman — juda matonatli, diydasi qattiq. Mevalarini hech kimga berishni xohlamay, uzoq vaqtgacha shoxida asrab yuradi. Biroq ulardan ayrilgach ham boshqalarga o'xshab faryod qilmaydi. Bargini ham to'kmaydi. Ba'zi behilar bahor kelguncha shu alfozda turadi. Go'yo bular "bolalarim"dan esdalik degandek, hech qayerga qo'yib yubormaydi.

Jyda ham behidan qolishmaydi. U boshqa mevalarning aksi — hammadan keyin gullaydi. Bahorda esa, dastlab barg chiqaradi. Kuzda ham avval barglarini to'kib, xuddi "Qizlarimni" qo'li yetgan olsin! degandek mevalarini ko'z-ko'z qilib turadi. Quyoshda ular yal-yal yonib, ko'zni quvnatadi.

Uzum. Uzumning boshiga ko'pgina savdolar tushadi. Bahorning o'rtalarida xomtok qilinadi. Go'yo qo'llari kesib tashlangandek bo'ladi. Kuz kelishi bilan yaxshi hosilga kirishi uchun yana qirg'illadi. Nihoyat, g'uj-g'uj uzumlaridan ayrilgach, ohu fig'oni ko'kka yetib, "qo'llari"ni u yoq-bu yoqqa yozib, hasrat chekadi. Shu payt yana shoxlari qirg'ilib, yerga ko'mib qo'yiladi.

Anor ancha chiniquqan daraxt bo'lsa-da, lekin odamzod oldida baribir o'z. Qip-qizarib pishgan do'mboqqina "norasidalari"ni uzib, ustiga-ustak, ularni ezib, suvini siqamiz. Nafsimiz qongach, qoldig'ini uloqtirib yuboramiz. Daraxt bechoraning tanasini o'rab-chirmab, go'yo janjirband qilib zindonga uloqtirilgan qaro yer bag'riga topshiramiz. Shoxidan ayrilgisi kel-magan barglar tuproqda chirib, egasining dardiga malham bo'ladi.

...Yana bahor keladi. Tabiat uyg'onadi, daraxtlar ne-ne orzu-umid bilan kurtak ochadi. Garchi ular yana kuz kelishini, hijron azobi va "farzand dog'i"ga duchor bo'lishini bilsa-da, yashashda davom etaveradi. Inson esa, vahshiylikdan qaytmaydi. Hayotning maromi shunday.



Shohrux IBODULLAYEV

Dov-daraxtlarga hayron qolaman. Odatda biz bajaradigan ishlarning tamoman teskarisini qiladi-ya. Masalan, yoz issiq kelishini bilaturib, erta bahordanoq "kiyinib oladi". Shoxlarini esa, qat-qat barglar ostiga yashirib oladi. Ehtimol, quyosh taftidan himoyalaniish uchun shunday qilar... Balki, mevalarimni turli yomon ko'zlar yoki xavf-xatardan asrayman, der.

O'rik va bodomning hammadan burun ko'zi yoriydi. Oppoq gullardan "libos kiyadi". Keyin asta-sekin yashil tusga kiradi. Xuddi endi bizga torlik qilib qoldi, degandek quyoshdan ohori to'kilib, sarg'imtir bo'lib qolgan eski "yo'rgaklari"ni uloqtirib yuboradi.

Bu daraxtlar mevasini quzg'unlardan asrash niyatida yoz bo'yi ham yangi barglar chiqarishda davom etaveradi. Biroq shu payt odamlar uning bor-budini terib olib ketadi. Har mevasi uzilganda "yuragi"ning bir parchasi yulimgandek bo'ladi. Xuddi farzandidan judo bo'layotgandek

joni og'riydi. Bechoraning tili yo'qki, dardini aytsa. Ayriqliqdan asta-sekin to'kilib, kiyimlari chok-chokidan yirtiladi.

Birinchi bo'lib yurak-bag'ri qonga to'lgan gilos nobud bo'ladi. Keyingi qatorda o'rik, uzum va olmaning er-tapishar navlari "jon taslim qiladi". Ular o'z "jigarlari"dan ayrilgach, ancha munkayib qoladi. Shu holatda ham kuzgacha dosh beradi. Xazon-rezgi boshlangach esa, birvarakayiga bir necha farzandidan ayrilgan onadek sochlarini yoyib, dod-faryod soladi. Dastlab yashil "libosli" daraxtlar hijron

biya bermoq joiz. Bu ota-ona zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklaydi.

Bolasining go'zal xulqi, tarbiyasi, kasb-kori bilan elda e'zoz topishini har bir ota-ona orzu qiladi, albatta. Orzu-havas o'z-o'zidan amalga oshmaydi, albatta. Ko'p narsa insonning diniy va dunyoviy tarbiyasi, bilim-saviyasiga bog'liq. Halollik mashaqqatlarni sabr bilan yengib o'tishni talab etsa-da, lekin pirovard natijada go'zal, ezgu niyatlar ro'yobi tomon yetaklaydi. Inson boriga qanoat qilib, o'z mehnati bilan ko'p narsaga erishishi mumkin.


Afsuski, bugun qing'ir yo'l bilan boylik orttirib, hamma narsaga osongina ega bo'lishga intilayotgan

kimsalar ko'paymoqda. Hatto o'z farzandini falon pulga sotibdi, falon yerga tashlab ketibdi, bo'g'ib o'ldiribdi qabilidagi sovuq xabarlar quloqqa chalinyapti. Bunday bag'ritosh, manfur kimsalar mas'uliyat tushunchasini, jamiyat oldidagi burchini butkul unutgan aniq.

Oila — muqaddas qo'rg'on. Mus-taqil hayot ostonasida turgan har bir yigit-qiz ertaga farzandiga go'zal xulqi, ezgu amallari bilangina namuna ko'rsatishi mumkinligini unutmilik darkor. Oiladagi ma'naviy muhit sog'lom bo'lsa, komil farzandlar ko'payaveradi. Bu esa, kelajagimiz uchun juda muhim.

# "EZGULIK KUYNCHISI"

## bilimdonlik mashqlari



**CHAYNVORDI.** 1. Chingiz Aytmatov sazovor bo'lgan ilmiy unvon. 2. Ijodkorning romani: "... tamg'asi". 3. "Jamila" asariga: "Jahonda eng go'zal sevgi qissasi", — deya ta'rifini bergan fransuz adibi. 4. Chingiz Aytmatov volidasining ismi. 5. Ijod mahsuli. 6. Yozuvchining ilk hikoyalaridan biri. 7. Nasriy asar janri. 8. "Oq kema" qissasi asosida ekranlashtirilgan filmning bosh qahramoni. 9. "Sarvqomat dilbarim" qissasidagi "Shofyor hikoyasi" qahramoni. 10. "Jazirama" nomi bilan ekranlashtirilgan "Bo'tako'z" qissasi qahramoni. 11. Bilimlar manbai. 12.

Chingiz Aytmatovning voqeyi qissasi. 13. Yozuvchi asarlarida mahorat bilan bayon etgan mavzulardan biri. 14. Chingiz Aytmatovning asarlari nashr etilgan va sahlanashtirilgan respublikamizdagi shahar. 15. Ijodkorning qatag'on yillari qurboni bo'lgan padari buzrukovining ismi. 16. Chingiz Aytmatov elchi lavozimida faoliyat olib borgan Yevropadagi davlat. 17. Qissa nomi: "Alvido, ...!". 18. Chingiz Aytmatov asarlarida betakror tabiati ta'riflangan orombaxsh suv maskani. 19. Asarlarida oqibati noxushlikka olib keluvchi hislat ekanligini bayon etgan

holat. 20. Ijodkorning "Somon yo'li" qissasidan: "Jala, jala, o'tib ket, qora suvdan ... ket". 21. "Jazirama" nomi bilan ekranlashtirilgan qissa. 22. "Birinchi muallim" qissasini o'zbek tiliga o'g'irgan tarjimon. 23. "Oq kema" asari xotimasida keltirilgan rivoyatga ko'ra bosh qahramon aylanib qolgan jonivor. 24. Chingiz Aytmatov ijodiga mansub adabiy janr. 25. Bo'lg'usi yozuvchi bolaligida buvisi va onasidan eshitgan xalq og'zaki ijodi janr/jaridan biri. 26. "Baydantol sohillarida" hikoyasi qahramoni.

**MUAMMONOMA.** Shaklning ichki qismidagi raqamlarda ustoz ijodkor Chingiz Aytmatovning xalqimiz madaniyatiga bergan ibratli ta'rifi yashiringan. Uni quyidagi raqamlarda ifodalangan kalit so'zlar javoblari orqali bilib oling.

1. Chingiz Aytmatov tavallud topgan Qirg'izistondagi maskan — 16, 1, 9, 1, 11.

2. Qissa nomidan: "Erta kelgan 4, 18, 11, 3, 1, 19, 1, 11".

3. Taniqli yozuvchi sazovor bo'lgan O'zbekiston Respublikasining ordenlaridan biri — 7, 8, 5, 4, 19, 2, 9.

4. "Askar bola" hikoyasi bosh qahramoni — 1, 23, 23, 1, 19, 14, 20, 9.

5. San'at arbobi, adibning "Somon yo'li" qissasi asosida respublikamizda sahlanashtirilgan "Momo yer" spektakli musiqasi muallifi — 1, 9, 14, 1, 11, 21, 13.

6. Ijodkorning adabiyotshunos olim, tarjimon Ibrohim G'ofurov o'zbek tiliga o'g'irgan romani — 6, 2, 15, 21, 12, 1, 4.

7. Roman nomidan: "1, 5, 11, 10, 1 tatigulik kun".

8. Asil Rashidov tomonidan ona tili-mizga tarjima qilingan qissa — 14, 8, 4, 1, 9, 8, 13.

9. Atoqli adibning yozuvchi M.Shoxonov bilan hamkorlikda yozgan romani nomidan: "Cho'qqida qolgan ovchining 21, 22, 2 zori".

10. Adib ijodiy faoliyati davomida e'tiborda tutgan voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettirish imkonini bergan soha — 5, 1, 3, 17, 1, 4.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV.

### BILASIZMI?

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'quvchilariga elektron raqamli imzo kalitlari sertifikatlari bepul beriladi.



Bolalikdan nogiron farzandlarning onalari ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan bo'lsa — ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya olish huquqiga ega. Basharti, ayol o'gay o'g'il va qizni ular 8 yoshga to'lguniga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan bo'lsa, pensiya tayinlashda ular haqiqiy farzandlar bilan teng ravishda hisobga olinadi.

Manba: Adliya vazirligining Huquqiy axborot kanali.

### HIKMAT

Kimki yoshligida ilm o'rganmasa, qariganda hurmat topolmaydi.

Muhammad ZEHNIY

### SHAKARXANDA



Professor: — 1441-yilda nima bo'lgan?  
Talaba: — Alisher Navoiy tug'ilgan.  
Professor: — 1442-yilda-chi?  
Talaba: — Alisher Navoiy bir yoshga to'lgan.

### MENING FIKRIM

## Halollik yuksalish demak

Muqaddas MUSAYEVA

O'zbekdek bolajon, farzandining ertasi uchun qayg'uradigan, yemay yedirib, kiymay kiydirib yashaydigan xalq kam topilsa kerak. Farzand — ilohiy ne'mat. U hayot mazmuni, nasl-nasab davomchisi, oilani mustahkamlovchi zanjirdir.

Solihi farzand ota-onaning baxtu iqbolli, ikki dunyo saodatiga eltuvchi ko'prik sanaladi. Lekin bunday saodatga erishmoq uchun bolaga, avvalo, e'tibor ko'rsatmoq, mehr-muhabbat, ta'lim-tar-

MUASSIS  
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI  
MARKAZIY KENGASHI

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2017-yil 2-avgustda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

Bosh muharrir  
Karimov Faxriddin Turdaliyevich

TAHRIR HAY'ATI

Mansur Bekmurodov, Laziz Tangriyev, Madamin Safarov, Alisher Sa'dullayev, Dilmurod Nabiyev, Azim Mirzajonov, Nodir Abduqodirov, Nargiza Umarova — bosh muharrir o'rinbosari ("Yoshlar ovozi"), Irina Kochergina — bosh muharrir o'rinbosari ("Молодежь Узбекистана"), Yelena Kalinina — mas'ul kotib ("Молодежь Узбекистана")

Dizayner  
Abdullayev Xurshid O'ktamjonovich

Navbatchi  
Hasan Usmonov

"YOSHLAR OVOZI" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart. 1 belgisi bilan tijoriy materiallar chop etiladi.



Buyurtma G-1236 Adali — 11057

Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (371) 150-22-74, (371) 233-95-97, (371) 233-79-69 (faks) E-mail: yoshlarovozi@umail.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi — 2 bosma taboq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.

Indeksler: 203, 3203 Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma G-1236 Adali — 11057 Bosilishga topshirish vaqti — 21.00 Topshirildi — 23.15 Oset usulidagi bosilgan.